

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Zaylobiddinova Minoraxon Abdupatto qizi

Andijon davlat pedagogika institute,

Maktabgacha ta'lim yo'nalihi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14056812>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachilar, ota-onalarning ishlari, bolalar nutqidagi kamchiliklar va ularning hal qilish usullari, normal va nonormal nutqning ahamiyat, bolalarnutqni rivojlanish, bolalarning nutqini o'stirish metodikasi maqsadlari, Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida, ma'nan kamol topishida, o'z o'rnini egallashida nutqning ahamiyati, bolalarning nutqini rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Nutq, nutq madaniyatini shakllantirish, normal nutq, nonnormal nutq, nutqni rivojlanish, zamonaviy texnologiyalar, diagnoz.

SPEECH DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. In this article, the development of the speech of preschool children, the work of educators and parents in the formation of speech culture, the shortcomings of children's speech and their solutions, the importance of normal and abnormal speech, the development of children's speech, the goals of the methodology of children's speech development, the importance of speech in socialization, intellectual development, taking one's place, the importance of using modern technologies in the development of children's speech is explained.

Key words: Speech, formation of speech culture, normal speech, abnormal speech, speech development, modern technologies, diagnosis.

РЕЧЕВОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие речи детей дошкольного возраста, работа воспитателей и родителей по формированию речевой культуры, недостатки детской речи и пути их решения, значение нормальной и ненормальной речи, развитие. речь детей, цели методики развития речи детей, Дошкольный возраст, значение речи в социализации детей 18 лет, в развитии смыслов, в их месте, важность использования современных технологий в развитии объясняется речь детей.

Ключевые слова: Речь, формирование речевой культуры, нормальная речь, аномальная речь, речевое развитие, современные технологии, диагностика.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadtqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan bir uning nutqining boyligidir, shuning uchun biz, o'qituvchilar uchun maktabgacha yoshdagi bolalaning aqliy va nutq qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta'minlash muhimdir. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribasiga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki xayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqning normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususuyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta ro'l o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish jarayonidagi rivojlanish davrini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanish jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yoshu 4 oylikda bola gapirmayapti.

Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishini bilsa, u holda bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganini xal qila oladi. Bola nutqining rivojlanish xususuyatlarini bilish, nutq buzilishlariga to'g'ri diagnoz qo'yishi uchun ham zarurdir.

Ba'zi mutaxasislar uch yoshli bolaning tovush talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni logoped qabuliga yuboradilar. Shu to'g'rimi? Yo'q, albatta. CHunki, nutqi normal rivojlanayotgan bolaga hali bu yoshda ba'zi bir tovushlarni no'to'g'ri talaffuz etishi orqali hosil bo'ladi. Bu ko'rinish fiziologik dislaliya deb atalib, bu yoshdagi bolalarda artikulatsiya aparatining hali yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish „Ilk qadam“ Davlat o'quv dasturida belgilangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida har bir ta'limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o'stirish va muloqatchanlik ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o'yinlar va didaktik vositalar asosida o'zlashtirganida samaradorlik yuqori bo'ladi. Ya'ni badiiy adabiyatni oddiy o'qib berishdan ko'ra innovatsion ta'lim texnalogiyalarini qo'llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta'minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish muhim va qiyin vazifadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quydagilarning to'g'ri hal etish bilan bog'liq:

-nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachilarining ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertak, she'r, qo'shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;

-ta'limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etish;

-ta'limiy o'yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo'lishini ta'minlash

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

-har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;

-hamkorlikka asoslangan ta'lim munosabatlarida bolani faollashtirish;

-nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o'yinli vaziyatlar:

Mualliflar bolalar nutqining shakllanish davrini turlicha ko'rsatadilar, ularni har-xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar. G.L.Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishni 2davrga ajratadi:

1.Tayyorlov davri. (2 yoshgacha bo'lgan davr)

2.nutqning mustaqil shaklanish davri. A.N.Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:

Tayyorgarlik davri – 1 yoshgacha.

Bog'chagacha bo'lgan davr – 3 yoshgacha.

Maktabgacha bo'lgan davr – 7 yoshgacha.

Maktab davr.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida nutq o'stirish mashg'ulotlarining vazifikasi tarbiyalanuvchilarini o'z fikrlarini, ko'rgan-kechirganlarini og'zaki va yozma nutq orqali atrofdagilarga bayon etishga o'rgatish hamda ularning bilim doiralarini kengaytirish, hayot haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, ularning ma'nnaviyatini yuksaltirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: - nutqni rivojlantirish – bolaning ijtimoiy psixik rivojlanishida markaziy o'ren tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayonidir; - nutqni rivojlantirish - bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonining turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatları, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim.

Ta'lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to'g'risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi va amaliyotida o'zgarishlar bo'lishini taqazo etadi. Bola nutqini rivojlantirishda, nutqning orfoepik jihatdan to'g'riliги ustida ishlash o'z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning asosiy vazifasi bola tomonidan ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o'zlashtirilishi hamda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi. Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vatqda, uni maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy - ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'gatish orqali ularning nutqi o'stiriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarga nutq madaniyatini shakllantirishdan avval ularga insonning insonligini ta'minlaydigan eng abadiy qadriyat bilan tarbiya beramiz, ularda bilim va malakalar hosil qilamiz va shu asnoda ko'zlangan maqsadga erishamiz. Hozirgi kunda maktabgacha tlim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini rivojlantirishga oid talablar qo'yilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o'zlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Nutq o'stirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi. Bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anotomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlash. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi.

Bola nutqning rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Bola nutqiy rivojlanishining bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, o'z-o'zidan harakatga kelishi bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir.

REFERENCES

1. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.
2. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.
3. Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.
4. Шарипова М. Б., Сайдуллаева М. Модульное обучение в системе образования //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 72.
5. Sharipova M. B., Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova X., IFODASI D. S. M. B.
6. Scientific progress. 2021. № 7 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostonimisolida>(дата обращения: 22.12. 2021).
7. ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostonimisolida(дата обращения: 22.12. 2021).
8. MA'NAVIY Y. A. R. V. A., O'RNI D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17.
9. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU //Maktabgacha ta'lim.
10. Шарипова М. Б., Сайдова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32
11. Шарипова М. Б., Сайдова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
12. O'RNI //BOSHQARUV VA ETIKA
13. 9.Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021.
14. №16-2 (119). URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyhduhovnyh-tsennostey-v-geroicheskem-epose](https://cyberleninka.ru/article/n/vospевание-национальных-духовных-ценностей-в-героическом-эпосе) (дата обращения: 07.10.2022). 10.Sharipova M.

15. B. Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI //Scientific progress. – 2021. – №.
16. 11.Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR //Scientific progress. – 2021. – №. 7.
17. 12.Шарипова М.Б., Нематова Ш.Н. ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ // Вестник магистратуры. 2020. №3-3 (102). URL:
18. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-esteticheskoy-kultury-vospitannikovdoshkolnyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy> (дата обращения: 07.10.2022).
19. Qo'ldoshev, R. (2022). Детская лень как психолого-педагогическая проблема. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22).
20. 14.Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINF CHAPAQAY O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22. .
21. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI 2022